Birinchi kitobim

БИРИНЧИ КИТОБИМ



NOZIMA HABIBULLAYEVA

НОЗИМА ҲАБИБУЛЛАЕВА

MOVIY QO'SHIQ

МОВИЙ ҚЎШИҚ

Birinchi kitobim
БИРИНЧИ КИТОБИМ

NOZIMA HABIBULLAYEVA

MOVIY QO'SHIQ

She'rlar

Muhammad Siddiq kutubxonasi
@Muhammad_Siddiq

«Navro'z» nashriyoti
Toshkent – 2019

KBK: 83.12(3Ўзб)
UO'K: 816.637
H-01

Habibullayeva, Nozima
Moviy qo'shiq (she'rlar). – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti. 2019-y. 96 bet.

Mas'ul muharrirlar:
Aziz SAID,
Nodir JONUZOQ

Nozima fikrlarini, his-tuyg'ularini shunchaki izhor etmaydi, ularni rassomning, musiqachining nigohi bilan tasvirlaydi. Dunyoga, tabiatga, ota-onaga, muhabbatga va o'z ruhiy kechinmalariga atalgan kutilmagan tashbehlari, o'xshatishlari bor.

Iltimos, dil chetida turmang!
Dovullarni to'sib qo'yyapsiz.

Samimiy she'rlari bilan Sizni o'zini kuzatishga qo'ymaydigan, tuyg'ulari, ifoda uslubi bilan she'riga olib kirib ketishga intiladigan bu yosh ijodkor o'z o'quvchilarini topadi degan umiddamiz.

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin an'anaviy seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-566-74-3

© Nozima Habibullayeva, 2019-y.
© «Navro'z» nashriyoti, 2019-y.

IRMOQ

Shabnamlar gulga tushdi,
Supurgi qo'lga tushdi.
Ko'cham chang bo'lmasin deb,
Yoshlarim yo'lga tushdi.

Oy o'zin nimtaladi,
Tun kunni timtaladi.
Jimlik jonimga tegdi,
Jonimni jim taladi.
Ovozim kim taladi?

She'r desam qalam yondi,
Bo'g'zimda alam yondi.
Ko'ngil og'ritib ko'nglim,
Vijdonim qalab yondi.

Ko'k bepardoz emasdi,
Yulduz g'avvos emasdi.
Uzrimni ayt, majnuntol,
Bu menga xos emasdi...

Sabrlar yog'aversin,
Abrlar yog'aversin.
Barcha ko'ngillar obod.
Davrlar yog'aversin!

Shoshgancha ariq oqar,
Ariqda baliq oqar.
Oxir quyilar joyin
So'rab, axtarib oqar.

Tuproqqa gul taqyapman,
Quyoshga o't yoqyapman!
Men nurdan bunyod irmoq,
Men qumdan bunyod irmoq –
Qay tarafga oqyapman?

Navoga oqib borgum,
Sadoga oqib borgum.
Xulqi go'zal-u qalbi
Gadoga oqib borgum.

Xalqim hovuchidagi
Duoga oqib borgum.
Qalbim, o'zing yo'l ko'rsat,
Xudoga oqib borgum!
Xudoga oqib borgum!

Shabnamlar gulga tushdi,
Ishqimiz Ulga tushdi.
G'uborlardan avaylab,
Yoshlarim dilga tushdi,
Yoshlarim dilga tushdi.

YERDAN OSMONGA QADAR

Meni tashqaridan ko'rib yuribman,
Sadpora kezadi ruhim darbadar.
Men o'zimni sochib-terib yuribman,
Yerdan osmonga qadar.

Sochdan tirnoqqacha burkangan ko'yi,
Har bir hujayramda uyg'ondi zafar.
Uning nomi g'urur, g'ururning bo'yi –
Yerdan osmonga qadar.

Xotiram doriga osilgan kim u?
Tanimadim, yolg'on aytsin shams-qamar.
Sizdan menga kelar masofa ushbu –
Yerdan osmonga qadar.

Duolar arshgacha o'sgandek beshak,
Sog'inchdan to'kilgan kipriklar sahar
Uyingizda maysa bo'lib unajak
Yerdan osmonga qadar!

PIANINOCHI

(Ballada)

Oppoq royal va muhtasham zal.
Hayajonning bezaklari jam.
Titroq o'ynar sahnani o'pgan
Ko'ylagimning etaklarida.

Ming ko'znayza nishonida – men,
Nafaslarim borar qisilib.
Va chalishni boshlayman
Betxovenning 14-sonatasini.

Ilk akkord va klavish domi
Nozik barmoqlarim cho'za boshlaydi.
Yurak ritmi : sol-do-mi, sol-do-mi...
O'n barmoq – o'n g'avvos oq-qora
Dengiz aro suza boshlaydi...

Ro'paramda klavir – nota,
Notalarki, qora tomchilar.
Kuy yig'laydi klavishlarga,
Barmoqlarim bo'lib tomchilab.

Birdan o'zni yo'qotib qo'ydim,
Barmoqlarim chalaverar mensiz ham.
Ruhim daydib qo'nim topar, so'ng
O'tmish. Vena.
Va tor xonada.

Mana,
Topilmagan partituralar,
Chang yukidan yotar ingranib.
O'rgimchak to'rlari quchoqlab yotar,
Sozdan tushgan pianinoni.
Unutilgan pianinoni.

Inlarida tebranib kuyga
O'rgimchaklar tinglar isinib.
Barmoqlarim-la o'paman
Betxovenning 14-sonatasini.

Kuy avjiga kelar. Yo, Xudo!
Ko'z yosh kelar butun tanimni bosib.
Kuy avjida nozik barmoqlarimga
Kuch qayerdan kelyapti oqib?!

O, Betxoven! Dahoyim mening,
Kar quloqqa dardni opichlab
yaralgan shu ohang domiga
Barmoqlarim bilan tomchila-ab

cho'kib ketgum...
Yangrayman endi,
Endi meni shu dengiz chalar.
... Nogoh qarsak qarmoqlari-la
Tortib oladi qarsakchilar...
Oppoq royal va muhtasham zal. ..

HATIKO

Vafot etgan egasini vokzalda 10 yil kutgan sadoqatli Hatikoga bag'ishlov

Bunchalar vafodor bo'lmasang,
Bunchalar ichimdan yig'layman...
Odamlar unutgan hislarni
Sen qaydan bilasan, bilmayman.

O'sha joy. Izg'irin, saraton,
Kutasan, go'yo fasllar daydi.
Umidlar yaltirar ko'zingda...
Va yillar qaltirar ko'zingda –
Ichingda izg'irin gullaydi...

Achinib qaraydi odamlar,
Ehtimol, kimlardir kuladi.
O'zingning tilingda aytasan:
U keladi, keladi...

Aylanay, Hatiko, aylanay,
Ko'zmunchoq qilardim ko'zimni.
Beg'ubor ko'zing-la aytasan
Sadoqat so'zini.

Qahraton.
Bag'rimga bir bossam,
Silasam qirovli yungingni.
Ko'zmunchoq bo'lsaydim, Hatiko,
Mehringga ko'z tegib o'ldingmi?..

Shunchalar bo'lurmi sadoqat,
Ko'nglimni yig'latib o'tasan.
Kutasan o'lib ham hattoki,
Haykalga aylanib kutasan!..

YURAK KO'TARGICH

Parishon, horg'in bo'ldim,
Betoblandim, toblandim.
O'zimdan quvg'in bo'ldim,
Mensizlikka bog'landim.

Uzoqlandi bu holat,
Buvim xavotir edi.
Yurak ko'targich xola:
«Yuragi tushgan» – dedi.

O'ylarim o'ylantirar,
O'ylarni sog'lash kerak.
Ro'molni ko'ksimgamas,
Ko'ngilga bog'lash kerak.

Qachon? Va qanday qilib,
Qayda tushgan chala jon.
Ko'tarmoqlikdan avval
Topish kerak, xolajon...

Shundan beri darbadar,
Biyobon, chorbog'daman.
Zamin, falakka qadar,
Jar solib bormoqdaman:

Hay odamla-ar, odamlar!
Bosib yurmadingizmi?
Ichi to'kilib ketgan
Yurak ko'rmadingizmi?

Hay odamla-ar, odamlar!

MOVIY QO'SHIQ

Osmon moviy, dengiz moviy, sensiz moviy
O'ylarimning uylarining kaliti yo'q.
Yuragimni mavjlantirgan dard ilohiy,
Million yillik harir sog'inch unga mayoq.

Men moviyni xush ko'raman, hushlarimdan
Ayirsa ishq musaffodek tuyulaman.
Dengizlarni tush ko'raman, tushlarimda
Men dengizman – osmonlarga quyilaman.

Men dengizman – osmonlarga quyilaman,
Naysonlarning arg'imchog'i kabi qadim.
Sen – mensizman. Qurimasin deb sohilga
Ko'ylagimning etaklari tutashadi.

Masofa va musaffolik so'zi egiz,
Hatto, keksa sog'inch ushbu rangda qarir.
Men o'shaman – o'sha moviy ko'ylakli qiz,
Tanib qolsang meni moviy rangda chaqir.

* * *

«Iltimos, platformaning chetida turmang!»
(Metrodagi e'londan)

Iltimos, dil chetida turmang!
Behudaga qo'zg'atmang uni.
U sezadi olib-olmay tan,
Mening ertam – uning buguni.

Iltimos, dil chetida turmang!
Bas, shunchaki achinmang axir.
Men ham bexos achinib qo'ysam,
O'z-o'zimga qilurman jabr.

Iltimos, dil chetida turmang!
Bo'ronlarni to'sib qo'yyapsiz.
Qarang, hatto chetda turib ham
Shamsga qadar o'sib qo'yyapsiz.

Ikkilanmang, kiring yo keting,
Eng yaxshi do'st – eng yaxshi ag'yor
Bo'lolsangiz, marhamat!
Ya'ni,
Nafaqat do'st saralab olar,
G'animlikka arziydiganni.

Vaqtin olmang bekordan bekor,
Toshqinlarga yo'lab bormoqda.
Unda gullar alangalanib,
Alangalar gullab bormoqda!

Iltimos, dil chetida turmang!
Dovullarni to'sib qo'yyapsiz.

KUMUSHGA MAKTUB

Alamni siyohga ko'mishga,
Qalamni siyohlab yumushga.
Yuzdagi xolimga botirib,
Maktublar yozaman Kumushga.

Ko'zgu-la parishon kalomlar,
Va o'ychan nigohlarimni ichdim.
Nastarin iforli salomlar,
Ko'tarib bormoqda sog'inchim.

Momojon, ko'rsaydim o'ngimda,
Tushlarim sizlikka chog'langan.
Og'rishga yaralgan ko'ngilga
Savolgul ro'mollar bog'langan.

Ohlarim oqlansa ohlardim,
Berkitdim dil degan ko'zaga.
Ko'zyoshmas ichishni xohlardim,
Oy nurin to'ldirib kosaga.

Yurakka pardalar tortildi,
Yurakka zardalar tortildi.
Sababsiz sabablarni izlab,
Va «nega, nega»lar ortildi.

Otabek bobom qay tomonda?
Siz qayda? Bormi maktabi ishq?
Dil o'yim – dil o'yin zamonda
Yetishmas sizlarning kabi ishq.

Yuragim ko'zimda qalqigan,
Bulut suv ichib yum yig'laydi.
Mana bu kulgichim haqqiga,
Endi tabassum yig'laydi.

Bir ertak,
Ertakdir shunchaki,
Bilmaski, ibo, orparastman.
Jim keldi, jim ketdi. Demakki,
Jimlikka munosib emasman!

TUVAKDAGI GULGA

Shamollarga suyanib bo'lmas,
Havodagi navolar nadir.
Yaproq-yaproq ko'ylaklaring-la
Sabolarda xirom boshqadir.

Quyosh nurin ichganmisan hech,
Mo'ralasang boshing sinmasmi?
Atrof kuyin ichib yuborgan
Derazalar qizg'anchiqmasmi?

Kapalakdan mahrum, mahkumim,
Kiprigin bolari o'pmagan.
O'rmalagan tomirlaringda
Chumolilar o'rmalamagan.

Oy choyshabin tashlasa senga,
Bo'ying, bo'ying tirqishga o'sib
Oyoqlaring qutqarolmaysan –
To'siq!
To'siq!
To'siq!

Ildizingga singmagan yomg'ir,
Sening kabi kunim tundalik.
Oh... ruhimni ezib yubordi
Tashqaridan tashqaridalik...

ATIRGUL

Atirgulning qavat-qavat ko'ylagi bor,
Qavat-qavat og'riqlari bordir dilning.
Zarbalardan himoya yo'q dilga biror,
Qalqon – tikanlari bordir atirgulning.

Qonrang-dilrang qavat ichra yoshlar saf-saf,
Nedir agar to'kmoq bo'lsa, cho'kmoq bo'lsa,
Umid shulki, gar bandidan uzilmasa
Yashil yelkanlari bordir atirgulning.

Vayronalik – dildan taralayotgan ifor,
Bunyod etsa edi isi atirgulning.
Atirgulning qavat-qavat ko'ylagi bor,
Orasiga berkingisi bordir dilning...

YOMG'IR

Yomg'irjon, sen meni yaxshi ko'rasan,
Yomg'irjon, men seni yaxshi ko'raman.
Sen bilan to'kilib yog'ishaman va
Momaqaldiroq-la dodlashib ko'raman.

Zamin sensizlikka ko'najakmi, ayt,
Sendan keyin maysa unajakmi, ayt.
Ko'zim sohilida kipriklar undi,
Dilga ko'klam fasli kelajakmi, ayt.

Ko'kda sonsiz yulduz bo'la turib ham,
Quyosh yondirmog'in bila turib ham,
Kunduzga talpinaverar oymomo,
Dog'lanib, goh yarim, to'lib turib ham.

Ko'rgin ovchi ko'kka o'q otganini,
Olovrang hislarim sovqotganini.
Bu joylar sahro-yu, anglab yetmadi –
Kimni topib, kimni yo'qotganini!..

Kel, sharros quyamiz, birga yog'amiz,
Osmon-u, to'rt tomon-u ham yerga
yog'amiz.
Tomchi-tomchi emas, toshib, sel bo'lib,
Shalabbolar bo'lib she'rga yog'amiz.

Rassom kamalakni bo'yoq qilar shart,
Notaga aylanar har tomchi, har dard.
Sen bo'lib yog'ayotgan mening haqimda
Olisda simfoniya yozadi Motsart....

Yomg'irjon, men seni yaxshi ko'raman.

BILGANLARIM

Ustoz,
Shogirdingiz o'zgargan ancha.
Yuragini senlamay qo'ygan.
Qayg'u, o'kinch, yana bir qancha
Tuyg'ularni tenglamay qo'ygan.

Bildimki, men bilganday emas,
Boshqacharoq porlarkan quyosh.
Qalbing nurga oshino bo'lsa,
Huzuriga chorlarkan quyosh.

Sut-ku mayli, qatiqdan kuygan
Muzqaymoqni puflab yer ekan.
Muqovaga bog'liqmas kitob,
Gulkosada bo'larkan tikan.

Ming shukurki, fursati yetib,
Yuqoriga oqarkan ariq.
Meni juda quvontirgani,
Osmonda ham suzarkan baliq.

Ko'rdim terak shoxida olma,
Shaftolida pishmoqda gilos.
Mening faqat bo'yimdan avval
Qarashlarim ulg'aydi, xolos.

Dunyo sodda, dunyo siriston,
Mushkul jumboq tugunlar kabi.
Bular haqda so'zlamasdingiz,
Tushunyapman endi sababin.

Bilganimdan bilmaganim ko'p,
Balki aybdir, balki ayb emas.
Faqat barin anglagunimcha
Qarashlarim qarimasa bas...

CHORLOV

Qalamim, kel, ilhomim
Kelmoqchiga o'xshaydi.
Yurakda islohotlar,
Bo'lmoqchiga o'xshaydi.

Turtkidir suyuk dardlar,
Oyning yuzida gardlar,
Yorqinlik sari battar
To'lmoqchiga o'xshaydi.

G'am chekmoqdadir g'amlar,
Armonlar armon g'amlar,
Alamidan alamlar,
O'lmoqchiga o'xshaydi.

Zumdadur zumligimiz,
Jim bo'lsin jimligimiz.
Kimlardir kimligimiz,
Bilmoqchiga o'xshaydi.

Ishonganim Xudodir,
Va, shubhasiz, duodir.
Shundan yorug' sabolar,
Yelmoqchiga o'xshaydi.

Salom, xush kelgin, omad!
G'alabalar – marhamat!
Kulib boqsam, menga baxt
Kulmoqchiga o'xshaydi!

Kimlardir kimligimiz
Bilmoqchiga o'xshaydi!

O'ZIMNI ALDASH

Xotira – ko'chmas mulk, g'alat tilsimdir,
Sim-simdir,tizimdir qaroqda qalqib.
«O'zgaribsiz...» – dedi nogahon kimdir,
Ehtimol... balki...

O'zgardim, o'zgardi o'zgarmasligim,
Taajjublaringizdan taajjubman bugun.
Nega, quvonchlarga loyiqmasmidim?
Yoki yaraldimmi ko'zyoshlar uchun?

Mahzunlik yoshligim chunon kemirar,
Baxtiyorlik aro so'radim haqqim.
Yuzimga, so'zimga kiydim-u, lekin
Yurakka ming yonib kiygizolmadim
Bu niqobni...

OG'RIQ

Chiroq o'chgan.
Yorug' kitoblar.
Shamchiroqda dars qilaman jim.
Ilhom kelmas... yozilmaydi she'r,
Hech nimani kelmas o'ylagim.

Yuz bor chorlab, chog'landim chog'i,
Bilmadim, bu – nening belgisi.
Balki o'chgan dilim chirog'i,
Balki shundan kelmas kelgisi.

Yog'averar yomg'irlar yoz deb,
Xazonlar o't qo'yar o'ziga.
Qancha bo'ldi qulluq qilmadim,
Qarolmayman tongning yuziga.

She'r bo'lmagan shamol yaralar,
Derazamga uraverib bosh.
Qog'ozlarim betob yotibdi –
Bir-biriga o'ranib bo'm-bo'sh ...

Bas, chidolmam qalam dodiga,
Nechun quyosh nurin qizg'onar?
Amallaymiz dil chirog'imni,
Egam yoqib qo'ygunga qadar!

Sham qidirib yo'ldaman, yo'lda ...

TAQQOSLASH

Navo – ko'ngil uchundir havo,
Nafis qudrat sozlarning bari.
Menga aziz pianinoning
Oq va qora klavishlari.

Hech zamonda bo'lolmas ayro,
Bir-birini to'ldirar ular.
Chunki shundan go'zallik paydo,
Ohanglarga ranglar quyilar.

Pianino – sevimli cholg'um,
Undan kuch, falsafa olaman.
Kunlarimning kuyi rang-barang,
Chunki har kun har xil chalaman.

Anglaganim, hamma ijrochi,
Tunday, kunday, menday chaladi.
Pianino – berilgan taqdir,
Kim qanday chaladi?

Dunyo esa tomoshabindir,
Tinglamasdan qarsak chaladi...

* * *

Quyosh ufqqa botmog'i bor –
Kundan keyin.
Va qayta tong otmog'i rost
Tundan keyin.

Yo talafot ko'riladi,
Yo bo'lmasa,
Muzaffarlik nasib etar
Jangdan keyin.

Xayolimni tinch qo'ymaydi
Bezori o'y,
Va bezovta etaverar
Bundan keyin:

Arzigulik nima qolar
MENdan keyin?

GO'ZAL QASOS

Ko'zlarim qop-qora, ishonasizmi?
Girdobga aylangan yomg'irli, loyli.
Kulgingizda gullab borayotgan kuzmi?
Mening yig'lashimam chiroyli...

Topmaysiz, ertaklar so'ylasin qadim
Hammadan odobi eng go'zal qizni.
Tunlari istig'for aytib, tiladim
Qaytishingizni...

Yaratiq edim men axir, betakror
Suluvlardan suluv etdi Xudoyim.
Sha'bon ro'zasida, yoqqanda yomg'ir,
Sizni hovuchiga oldi duoyim.

Sujudda yig'ladim vujuddan qochib,
To arshga yog'ildi rux parchalarim.
Yomg'ir yoqqan payti bo'ladi ochiq,
Bizni Yaratganning darichalari.

Men shunday so'rayman, ijobat aylar,
Ko'nglim chashmidan suv ichgani toza.
Siz qaytib kelasiz, ammo o'sha kun
Sizli tuyg'ularga tutaman ro'za.

* * *

Goh yomg'ir, goh quyoshdan dastxat
Olgan tilsim, kim dastlab ko'rgan.
Yonib ketgan ming chaqirim xat –
Ko'zlarimni o'qishni o'rgan.

Bir so'z dema va javob kutma,
Bu so'nggi on, darig'lar tutma,
Eslab qol! Bir umr unutma! –
Ko'zlarimni o'qishni o'rgan.

Yo'l ko'rinur yo'l qaray desang,
So'ng ketaver qay boray desang,
Hechyo'q yashashga yaray desang,
Ishqda savod chiqaray desang,
Ko'zlarimni o'qishni o'rgan.

TASHRIF

«Tushingga kirganimni
tushimda ko'rib tursam...»
(Nosir Abbos)

Tushingizga kirganim tushimda
ko'rib turdim,
Ko'zimda ko'zingizning muhabbat
dengizimi?
Sochlarim uchi so'roq bo'ldilar – o'rib turdim,
Keldingizmi?

Yuragingiz zarbida qochqin qadamimmidi?
Tergan olmalaringiz yonog'i ol, jimmidi,
Olmadan ol yuzlarim sababchisi kim edi?..
Keldingizmi?

Fasli xazon yomonmas, bog'larni siylagaydir,
Tangri salomatlik-la sog'larni siylagaydir,
Telbalarni telbalik chog'lar-la siylagaydir...
Keldingizmi?

«Sizdan keyin hech kim!» deng, oldin
bo'lmagan demang,
O'zimni olib qochsam, tushuning va
ranjimang.
Axir mingta savoldan ayta olganim arang –
Keldingizmi?

Chunki yuzim yashnatib,
hayodan parda nasib
Ayladi.
Shu go'zallik nogoh ko'tarilmasin.
Tashrifingiz Xudo, men bildim, hijron bilmasin.
Keldingizmi?

Nastarin iforlari
yo'lkangizdamidi yo?
Yaratgan yaratgan qalb
o'lkangizdamidi yo?
Uchirgan kipriklarim
yelkangizdamidi yo?
Keldingizmi?

Anhorning sochi uzun, oymomo
yiqilgandir,
Mahzuna bu ko'zlarga ishq ila
tikilgani.
Faqat rostini ayting, faqat baxtli
qilgani
Keldingizmi?

Kulgichimdan kulgular to'kkani
sarmast bo'lib,
Mehringizdan quyoshning harorati
past bo'lib,
Ishqilib bir umrga, hech qachon
ketmas bo'lib
Keldingizmi?..

* * *

Sochim og'rir, kiprigim og'ir,
Zirqirayman tirnog'imgacha.
Tun – dumaloq, ko'zimda qoldi.
Ne edi u
bir onda yiqitgan?
Million yilmi turmog'imgacha?!

Hamma narsa dong qotgan.
Qulog'imda
Yangraydi jim uvishgan ohang.
Rang uvishgan,
Ong uvishgan,
Tong uvishgan.
Yomg'ir muallaq qotib qolgan
Osmonida,
Yer
Najot so'raydi ko'zlarimdan
Yuzin yuvishga.

Kaliti yo'qolgan eshikday –
Labim qimir etmas,
Aslida-ku
Sochimdan
Tirnog'imgacha savolman, savol.
Kulgichimdan tomayotir qon.

Jiim-mm qolaveraman – shu mening
gapim...

Xayollarim bo'lib qolgan shol.
Anglaganingdek,
Yuragimdan darz ketdim,
Bu darzning izi cho'zilmish
Ekvatordan-da uzoq.
Afsus...
Meni aqlsiz va yuraksiz ko'zlaringdan
Asray olmadi,
Sen sovg'a qilmagan ko'zmunchoq.

* * *

Qahratonda sirg'alar o'ylar
Ufq qonini chizar homaki.
Yelkalari ezilgan uylar
chekib chiqar tunda tamaki.
Tirnoq sotar bo'ri. Osmon yuk,
Kelolmaydi qismatga tikka.
Baliq sotib o'tirgan mushuk
Cho'kib borar tirikchilikka...

* * *

Bu to'rt devor – misoli quti,
Eshigini qidiradi baxt.
To'rt burchakka qisilgan qutb
Va guldonga sopqo'yilgan vaqt.
To tomgacha zulmat quyilgan
To tonggacha tushlari g'ijim.
Qanotlari mixlab qo'yilgan
Derazaga aylandim...

* * *

Qamar to'lg'onadi «Tugallanmagan
simfoniya»ni kulib tinglar qay surbet.
Yakunlab qo'y degan da'vati bilan
Ilhaq. Tushlarimga kiradi Shubert.
Qadamim – oxirgi tovushlardir, so'ng
Nuqtaga aylanar nota shu izdan.
Ko'zimdan to'kilar eng so'nggi ohang
Chakki o'tmadimi yuragingizdan?

* * *

Ey, men kimligini bilmaganim, kel,
Ikki ming yoshdaman axir, sen jimsan.
Ovozingga qurbon bo'lmaganim, kel,
Kimsan?
Bir olov, bir dengiz xatlar yubording
Ular qanotini ko'rsatdi faqat.
Bir shirin, nom'alum dardlar yubording,
...Rahmat.
Qadim bitiklarga bitay so'zingni
Orzurang so'ylagin, Yurakchan so'yla
Soqov ko'zlaringdan olib o'zimni
Atay uyquga sobturaman,... so'yla!

* * *

Jazirama. ...bo'lib norozi
Nafaslari qaytadi kunning.
Ko'zlarimga berkinib moziy
Ranglarini tinglaydi dunning.
Ishkomlarga ilinib qolgan
Shivirlaydi qushlarning tushi.
Hovuzdagi oppoq qayiqcha
Tushib qolgan oyning kovushi.
Etikdo'zning derazasidan
Ayg'oqchilik qiladi daraxt
yerning boshi aylanar bu dam
Qurbaqalar sayraydi «vaqt- vaqt!»

* * *

Sog'inch rangin xotirga qamab
Tushgum ichim – parixonaga.
Moziy so'zi yanglishku,
«Hamma
yo'llar eltadi Farg'onaga!»
Oyog'imga sachramagan loy
bo'gzimda so'zmasmi dadajon?
Ertakdagi malikalarday
Ulg'aytgan sizmasmi dadajon?...
Terganingiz qulupnaylarning
Iforidan etmasin halos.
Qulog'imga siz taqib qo'ygan
Eng chiroyli sirg'a – qo'shgilos.
Barmoqlarim quchmagan ketmon,
Va sovuqqa urmay qo'limni
Bugun olis shaharda oson
Shamollatib qo'ydim dilimni.
Ichikdimov vodiy rangiga
Dovon yurtin taxt bo'sh pallasi.
Tun. Qulog'im ostida yangrab
uyg'otadi onam allasi.

8-NOTA

Bu devorlar – o'g'ri,
erkning qafasi
Tabiatdan meni o'margan.
Halovatim bo'g'ib,
yutib yuboradi nafasim...
Yashnatmoqchi bo'lar yashirib
yolg'izlikka ko'markan.
Bu devorlar – oshiq
ko'zyoshlarimga,
Simirib-simirib ichar ovozim.
Olov ohlarimda pishgan g'ishtlari,
Suvoqlari taqlid qilar sochlarimga
Hatto
Mushtlarimni o'pib o'tmoqqa rozi.
Bu devorlar – hofiz.
Million yil o'tib
qaysidir avlodlarimni uyg'otadi.
So'ng ularga million yil
Suratimning iforlarini taratii-ib
kuylaydi
8-notada!
Shunda...
Bu olam – Yangi musiqa!

* * *

Musaffo ko'zlarning derazasidan
Chiqsang-u ishq qolsa sendan arazlab.
Suhbatlashii-ib ketsang soyabon bilan
Odamlar tentak deb o'ylashsa... mazza!
Hechkimni sevmasang, O qandayin erk!
Sayr etsang xazonrang poyondozlarda.
Yo'lingga ko'z tikib, saqlagancha kek
Uzumlar yig'lasa zardama-zarda.
O bu Kuz! Bu yomg'ir gurungidaman,
Osmon qizg'onarkan meni tobora.
Tobora tomchilar va yaproqlar ham
Yuragim rangiga qilar ishora.
Qush edim, hech tutqich bermaydigan qush
Qafaslar yangradi ishqsizlik aro.
Kelding-u ey o'ngga aylanuvchi tush
Sen menga bu erkni ko'rmading ravo.

* * *

Qo'llarimga qizil olov tutqazdi u,
Million yillar sovqotmasam kerak endi.
Ishonchimni yutib, dilin yutqazdi u
Ko'ksimdagi ko'ksidagi yurak endi.
Men nomini bilmaydigan ranglar bilan
Siyratimni chizib berdi samolarga.
U kuyladi, ohanglarga aylandim-u
Havolarga singib ketdim, havolarga.
Bir musaffo so'zlar oqdi ko'zlarimdan
Bu kuz buncha yashilikka ko'milgandir
Yanog'imdan, qarog'imdan, so'rog'imdan
Quyosh uzib olsa bo'lar tandir-tandir.
Qadamlari qutlug'midi yo shunchalik
O'ylarimdan tomirimga ko'chdi farah.
O'n sakkiz ming olam bilan jimirladik
Shivirladi qulog'imga ismini Baxt!

* * *

Sadolar samodan keladi shaksiz,
Xazonlarni bosib o'taman –
ingranadi daraxtning uchi...
Ko'zlarim quyoshning ovozin ichur
ko'zingga uning nuri-la botinimni
yozib
yozib o'taman.
Sen uni bitasan she'r qilib,
«yashamaslik uchun yuraksiz».
Sadolar samodan keladi shaksiz,
Xususan, dengizning qo'shig'i – yomg'ir,
Paxtalar lab ochar bulutlar haqda.
Chumoli yuk ortib borarkan shahdam –
Guldirak – osmonning yelkasi og'rir.
Yana,
yana ko'p misollar keltirish mumkin,
ammo, deyarimki,
Men-da samodan taralmish sado
Sen uni yerlarga sochma, azizim...

* * *

Terilmagan qoshim,
to'kmagan yoshim
qarolmay – qaroshim ostida bor u.
Kulgichimga ingan
Oromi tingan
Yolg'on dunyolarning rostida bor u.

Hayollar ovunchoq,
Sovg'a ko'zmunchoq
Asrolmadi tunning ko'zlaridan-da
Qo'llarimni tutgan
O'zin unutgan
Qizil atirgullar aylaydi xanda.

Anhor chorlayotir,
Bahorlayotir
Tongni ortib kelar quyosh-g'ildirak
Anhor umidida
Diydor umidida
Qo'limga o'zini osadi chelak...

* * *

Tangri bir kuch bersa yiqilgan saring
Bir yelkangga dunyo, biriga zora
onangning jamiki iztiroblarin
ortsanggu yengillab borsang tobora.

Otang sochidagi bari oqlikni
Jami ko'ngillarga tarqatib chiqsang.
Chumolini ezgan, laychadan qo'rqqan
Oyoqlarni faqat yiqitsang, yiqsang!

Muhtojlik ko'rgazsa faqat O'ziga
Insof beraversa toki tavbarang
ro'molingni o'rab, yig'lab sajdada
yer bilan qorishib ketsa peshonang

Ishq bersa,
Ishq bersa unda O'zi jam
Manglayingga baxtning nafasi yetsa.
So'ng,
Shukr etsang ojiza yaratganiga
Boshingni bir alpning yelkasi tutsa...
Yashasang, dunyoni unutsang.

* * *

Sukunatga tortilgan taroq,
Tun yoyilar sochlarimdek tim.
Derazamning ostida nogoh
Serenada kuylayotgan kim?

Kuylaydiki, osmoningdan kel,
Undan baland yerlarda o'lkam.
So'zlariga chayilar ko'ngil
Ovozlari shunchalar o'ktam.

Yulduzlardan to'kilar izhor,
Tisarilib boradi parda.
Qor uchqunlar, o'ynar ehtimol
gitarasin to'lqinlarida

Kulgu bosar ko'zlarimga lab
Shivirlaydi dekabr sasi.
Dimog'imga urila boshlar
Oyning nafasi...

Tong nuridan chalkashar yo'lim,
Jon hapqirar! Tomog'imda cho'g'...
Qo'shiq o'sha... Tutqichda qo'lim.
Qarolmayman derazadan. Yo'q!

Shivirlayman, so'roqdir balki
«Honishlaring jonbaxsh va sokin,
Yuragimning ustida qalqib
Serenada kuylayotgan kim?»

* * *

Dengizlarni ichib keldi ko'zlaring,
Osmonlar engashib turdi yelkangda.
Menga qay shevada so'zlading ?
Ey Ishqi banda.

Go'yo zuhrosiga yonboshladi tog'
Bag'rida vulqonlar pishqirdi..
Xudoning yo'lida sevilmoq, sevmoq
Ishq erdi!

Qaysi ertakdansan ayo pahlavon?
Bu yerlarga izlab kelganding kimni?
Ayt, qanday ko'tarding axir ming botmon
Ko'nglimni...

Ne baxtki, dengizlar ichida yondim,
Axir dengiz
va yomg'irdan yaralmishman.
Hadikda tushlardan tushdim, uyg'ondim :
Mavjudsan!
Bu baland o'ngimdan tushmam!...

* * *

Balandroq ko'taring osmonni
Boshimga yiqilib tushmasin.
Ko'zingiz qadalgan zamonda
Ko'zlarim – dunyoning tugmasi.

Yechilib ketmasin savollar,
Umidvor bo'lmasin sag'ana.
Ko'nglimiz mavludin nishonlar
Falakka ag'anaab-ag'anab.

So'ylamish Ko'hi Qof qushlari
Sidralar ekkuvchi bizligin.
Eng inja sirlarni xushladim
Ochmasdan so'z degum, siz degum.

Va bunda jonlanar Behistun
Bog'lardan taralmish she'r isi.
Ko'ksingiz otida bir uzun
Yo'l bosib o'tgaymiz, yo'l bosib.

Shamsinur aslida qahrabo,
Tunning-da zarrasi nurga teng.
Shunchalar go'zalki qahraton
Tashrifi ne kechar bahorning?

* * *

Bilsang, ranjga begonalashdim,
Aytganingdek aylandim o'zga.
Parilardan kulgu talashdim,
Bahorlardan o'zganim o'zgan.

Ikki torga aylandik qadim
Muhabbatning dutorlarida.
Va o'zimni yashay boshladim
She'rlaringning iforlarida.

Ranglar shuncha ko'pmidi, nahot,
Mo'yqalaming uziblar o'tma.
Dunga kiprik qoqmayman! Faqat
Sendan ranjib qolmay,
qo'rqitma...

Indamayman shuning uchun ham,
So'zlarimni kesib boraman.
Yomg'ir yuvgan sochlarim bilan
Xayolingda esib boraman.

So'ngra kulib qo'yaman sho'x-sha'n,
Xabar kutib uyquying yarim.
Mudrayotgan men, ko'zlaringdan
To'kiladi shaffof tushlarim...

MUNDARIJA

Irmoq.....3
Yerdan osmonga qadar.....5
Pianinochi 6
Hatiko 8
Yurak ko'targich 10
Moviy qo'shiq 12
«Iltimos, dil chetida turmang!..» 13
Kumushga maktub 15
Tuvakdagi gulga 17
Atirgul 18
Yomg'ir 19
Bilganlarim 21
Chorlov 23
O'zimni aldash 25
Og'riq 26
Taqqoslash 27
«Quyosh ufqqa botmog'i bor...» 28
Go'zal qasos 29
«Goh yomg'ir...» 30
Tashrif 31
«Sochim og'rir...» 33
«Qahratonda sirg'alar...» 35
«Bu to'rt devor...» 35
«Qamar to'lg'onadi...» 35
«Ey, men kimligini...» 36
«Jazirama...» 36
«Sog'inch rangin...» 37
8-nota 38
«Musaffo ko'zlarning...» 39
«Qo'llarimga qizil...» 40
«Sadolar samodan...» 41
«Terilmagan qoshim...» 42
«Tangri bir kuch bersa...» ..43
«Sukunatga tortilgan...» 44
«Dengizlarni ichib keldi...» 45
«Balandroq ko'taring...» 46
«Bilsang, ranjga...» 47

NOZIMA
HABIBULLAYEVA

1996 yili Farg'ona shahrida tug'ilgan. O'zbekiston davlat konservatoriyasi talabasi. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi (2017).

ISBN 978-9943-566-74-3

9 789943 566743